

OLTIARIQ TUMANIDA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH: MUAMMOLAR VA USTUVOR YO’NALISHLAR

Sheraliyev Ziyodullo Mirzatillo o’g’li

Ilmiy rahbar: M. Turginova

**Andijon Davlat Texnika Instituti, “Iqtisodiyot va boshqaruv” fakulteti,
“Iqtisodiyot” kafedrası**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20541890>

Annotatsiya

Kirish

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik O‘zbekiston iqtisodiyotining asosiy harakatlantiruvchi kuchlaridan biri bo‘lib, yalpi ichki mahsulotning 56–58 foizini ta‘minlamog‘da. “O‘zbekiston–2030” strategiyasi ushbu ko‘rsatkichni 80 foizga yetkazishni maqsad qilib qo‘ygan. Shu bilan birga, hududiy darajada, xususan Farg‘ona viloyatining Oltiariq tumanida, tadbirkorlik faoliyatining sifat ko‘rsatkichlari yetarlicha o‘rganilmagan va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilmagan.

Maqsad

Tadqiqotning maqsadi 2023–2025-yillar mobaynida Oltiariq tumanida tadbirkorlik subyektlarining rivojlanish dinamikasi va strukturasi tahlil qilish, asosiy muammolarni aniqlash hamda 2026–2028-yillarga mo‘ljallangan ilmiy asoslangan kompleks tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Metodlar

Tadqiqotda Oltiariq tumani Iqtisodiyot boshqarmasining 2021–2025-yillarga oid ichki hisobotlari va tuman hokimligining statistik ma‘lumotlaridan foydalanildi. Tahlil usullari sifatida dinamik tahlil, strukturaviy tahlil, iqtisodiy modellashtirish va qiyosiy tahlil qo‘llanildi.

Natijalar

Tahlil natijalari bir qator muhim tendensiyalarni ko‘rsatdi. Ro‘yxatdagi tadbirkorlik subyektlari soni 2023-yildagi 2 682 tadan 2025-yilga kelib 2 684 tagacha deyarli o‘zgarmagan bo‘lsa-da, faollik darajasi 2024-yilda 74,9 foizdan 58,6 foizga keskin tushib, 2025-yilda 71,4 foizga tiklandi. 2025-yilda 501 ta subyekt tugatilishi va sof o‘shishning ilk bor manfiy ko‘rsatkichga (–188 ta) tushishi institutsional va moliyaviy muhitdagi tizimli muammolarning natijasidir.

Ijobiy tomondan, sanoat sektorida kichik biznes ulushi 57,2 foizdan 73,7 foizga oshdi; eksport hajmi 154,8 mln AQSh dollaridan 168,7 mln dollarga ko‘tarildi va tashqi savdo saldosini 118,6 mln dollardan 140,1 mln dollarga yetdi.

Asosiy to‘siqlar sifatida quyidagilar aniqlandi:

- tijorat kreditlarining yuqori foiz stavkasi (yillik 22–28%), qisqa muddatlilik va qattiq garov talablari;
- fizik va raqamli infratuzilma yetishmovchiligi;
- malakali kadrlar tanqisligi va mehnat migratsiyasi;
- innovatsion va raqamli tadbirkorlikning past ulushi (4,0%).

Oltiariq tumanida tadbirkorlikning asosiy ko‘rsatkichlari (2023–2025)

Ko‘rsatkich	2023-yil	2024-yil	2025-yil
Ro‘yxatdagi subyektlar soni (ta)	2 682	2 865	2 684
Faol subyektlar soni (ta)	2 008	1 678	1 917

Ko'rsatkich	2023-yil	2024-yil	2025-yil
Faollik darajasi (%)	74,9%	58,6%	71,4%
Sanoatda kichik biznes ulushi (%)	57,2%	57,7%	73,7%
Eksport hajmi (mln AQSh dollari)	154,8	166,7	168,7
Tashqi savdo saldosini (mln AQSh dollari)	+118,6	+131,7	+140,1

Xulosa

Tadqiqot natijalariga asoslanib, jami 438,9 mlrd so'm moliyaviy resurslarni jalb etuvchi "2026–2028-yillarga mo'ljallangan kompleks chora-tadbirlar dasturi" loyihasi ishlab chiqildi. Dasturning Return on Investment (ROI) ko'rsatkichi 113,9% ni tashkil etadi; amalga oshirilganda 15 700 ta yangi ish o'rni yaratilishi, ishsizlik darajasining 2,6 foiz punktiga pasayishi va jon boshiga daromadlarning 18 foizga oshishi prognoz qilinmoqda. Taklif etilayotgan moliyaviy mexanizmlar (mikromoliya, kafolat fondi, biznes-inkubator), institutsional vositalar ("Oltiariq Business Hub" platformasi, tadbirkorlik akademiyasi) va klaster yondashuvi tumanda tadbirkorlikning yangi bosqichiga o'tishga asos bo'ladi.

Kalit so'zlar: *tadbirkorlik, kichik biznes, hududiy iqtisodiyot, faollik darajasi, eksport, moliyaviy qo'llab-quvvatlash, klaster, raqamli iqtisodiyot, Oltiariq tumani.*

Adabiyotlar, References, Литературы:

- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. "O'zbekiston Respublikasini 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmon, 2023-yil 11-sentabr, PF-158-son. URL: <https://lex.uz/docs/-6600404>
- Schumpeter J.A. The Theory of Economic Development. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1934. – 320 p.
- Malikov T.S. Hududlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning ilmiy-uslubiy asoslari: Monografiya. – Toshkent: "Iqtisod-moliya", 2022. – 248 b.
- Oltiariq tumani Iqtisodiyot boshqarmasining 2023–2025-yillar uchun ichki hisobotlari.
- OECD. SME Policy Index: Eastern Partner Countries 2020. – Paris: OECD Publishing, 2020. – 488 p.